

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ЎҚУВ МАРКАЗИ**



**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ЎҚУВ МАРКАЗИНинг
“ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ЎҚУВ МАРКАЗИДА РЕЗЕРВДАГИ ВА
ЗАХИРАДАГИ ОФИЦЕРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ: АНЪАНАЛАРИ,
ИННОВАЦИЯЛАРИ, ИСТИҚБОЛЛАРИ”
МАВЗУСИДА ЎТКАЗИЛГАН РЕСПУБЛИКА
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ**

МАЪРУЗАЛАР ТҮПЛАМИ

Тошкент 2021

Таҳририй ҳайъат раиси:

Хайдаров К.А. – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази бошлиғи, подполковник.

Таҳририй ҳайъат аъзолари:

1. Уралов Х.Б. – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази илмий бўлим етакчи мутахассиси, резервдаги подполковник.

2. Сапаев Ж.К. – Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази илмий бўлим бошлиғи, резервдаги майор.

3. Бекназаров А.А.-Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги Ахборот-коммуникация технологиялари ва алоқа ҳарбий институти профессори, психология фанлари номзоди, доцент, резервдаги подполковник.

“Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлаш: анъаналари, инновациялари, истиқболлари” Республика илмий-амалий анжумани маъruzалари тўплами. – Т.: ЎзМУ Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази, 2021. – 137 б.

Мазкур анжуман маъruzалар тўплами резерв ва захирадаги офицерларни тайёрлаш долзарб муаммоларини муҳокама қилиш, ҳарбий кадрларни тайёрлаш жараёнини такомиллаштириш, бўлажак резерв ва захирадаги офицерларнинг касбий тайёргарлигини амалга оширишда ҳарбий кадрларнинг ўрнини белгилаш, ҳарбий сафарбарликка доир илмий тадқиқот ишларинининг долзарб йўналишларини муҳокама қилиш мақсадида “Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлаш: анъаналари, инновациялари, истиқболлари” мавзусида 2021 йил 26 ноябрь куни Мирзо Улугбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида ўтказилган Республика илмий-амалий анжумани маъruzалари материаллари асосида чоп этилмоқда.

**АНЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛ ВА
МАЪЛУМОТЛАР УЧУН МУАЛЛИФ ЖАВОБГАРДИР.**

Ўзбекистон Миллий Университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази бошлигининг
«Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида резервдаги ва захирадаги офицерларни
тайёрлаш: анъаналари, инновациялари, истиқболлари»
мавзусида ўтказилган Республика илмий-амалий анжуманининг

КИРИШ СЎЗИ

(2021 йил 26 ноябрь, ахборот ресурслар маркази хонаси)

Ассалому- алайкум хурматли анжуман қатнашчилари!

Бугун мамлакатимизда барча соҳалар қатори, олий таълимни ривожлантиришга, тайёрланаётган кадрларнинг сифати даражасига катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони Ш.М. Мирзиёев ўзининг “Янги Ўзбекистон стратегияси” китобида “...Таълим соҳасининг яна бир энг асосий вазифаси буғунги кун учун зарур бўлган янги авлодни, илм-фан ва ўз ихтисослиги асосларини пухта эгаллаган, билимли ёшларни тарбиялашдан иборатлиги шубҳасиз...”¹, - деб таъкидлаган.

Ҳар бир мамлакатнинг куч-қудрати, дунё ҳамжамиятида тутган ўрни, сиёсий-иқтисодий ривожи унинг ёш кадрлари салоҳияти билан белгиланади. Мамлакатимизда таълим тизимида кейинги йилларда жуда катта ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Хусусан, ҳарбий таълим тизимида резерв ва захирадаги офицерларни тайёрлаш Ўзбекистон Миллий Университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази янги мазмун ва қиёфада амалий фаолиятини олиб бориши ислоҳотларнинг ёрқин намунасидир.

Таълим беришда жаҳон тажрибасини ўрганиб, уларнинг илғор сифатларини мамлакатимиз ҳарбий таълим тизимига мослаштириб татбиқ этиш, янгича омилкор инновациялардан фойдаланишга Ўзбекистон Миллий Университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида жиддий эътибор қаратилмоқда.

Айнан шу масала бўйича Ўзбекистон Республикаси Президенти, Қуролли Кучлар Олий Бош Қўмондони Ш.М. Мирзиёев қуйидаги сўзларни :

“Янги фикр, янги гояга, инновацияга таянган давлат ютади. Биз буюк келажагимизни барпо этишини буғундан бошлайдиган бўлсак, уни айнан инновацион гоялар, инновацион ёндашув асосида бошлиши керак”. айтган эди:

Шу ўринда барча анжуман иштирокчиларини, маърузачи мутахассисларимизни маъruzalariiga ижодий ёндашган ҳолда унинг муҳокамаларида фаол қатнашишга чақираман. Зоро, Ватан тақдирни ва келажаги, халқимизнинг тинч ва осойишта ҳаётини таъминлаш йўлида бор куч ғайратимизни, билим ва тажрибамизни ва энг аввало Ватанга бўлган садоқатимизни сафарбар этишимиз керак. Шундагина биз кўзлаган мэрраларимизга етамиз.

Сизларни бугун Ўзбекистон Миллий Университетида янги ташкил этилган Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида илк бор ўтказилаётган Республика илмий-амалий анжумандада кўриб турганимдан ва бу тадбир Ватанимиз хавфсизлигини

Buxoro davlat universiteti Harbiy ta’lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikl boshlig‘i - katta o‘qituvchi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) Uzoqov Asliddin Mexritdinovich, Maxsus tayyorgarlik sikl o‘qituvchisi Nurulloev Laziz Latipovich

Harbiy rahbar va ofitserlar faoliyatida pedagogik bilimlarning o‘rni.

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy rahbar va ofitserlar faoliyatida pedagogik bilimlarning o‘rni va harbiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Fiziologiya, Qurolli Kuchlar, fan,ta’lim, ob’ektiv, modellashtirish.

Аннотация: В статье рассматривается роль педагогических знаний в деятельности военачальников и офицеров и методы исследования военной педагогики.

Ключевые слова: Физиология, Вооруженные Силы, наука, образование, цель. моделирование.

Annotation: This article discusses the role of pedagogical knowledge in the activities of military leaders and officers and research methods of military pedagogy

Keywords: Physiology, Armed Forces, Science, Education, Objective, Modeling.

Mamlakatimiz inson hayotining hamma soha va jahhalari bo‘yicha islohotlar davrini boshdan kechirayapti. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Sh.M. Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida jumladan quyidagilarni ta’kidladi; “**Biz yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash, o‘quv-tarbiya jarayonlariga ilg‘or xorijiy tajribalarni, pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etishga bundan buyon ham birinchi darajali ahamiyat qaratamiz**”.

Davlatimiz Qurolli Kuchlarda jadal islohotlar olib borish davrida harbiy kadrlarning professionallik darajasini oshirishni yetarli darajadagi jangovar shaylikni saqlashining eng zarur shartlaridan biri deb hisoblaydi. Qurolli Kuchlar o‘quv yurti ofiseri, chaqiriqqacha harbiy ta’lim o‘qituvchisi kabi shaxslar, o‘quv tarbiya jarayonida asosiy shaxs hisoblanadi, ular amaliyotda asosiy didaktik prinsiplar, ta’lim berish va tarbiyalashning forma va usullarini amalga oshiradi.

Shuningdek, ofislerlar, shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchilarning rahbarlik, o‘qituvchilik va ustozlik faoliyatidan kelib chiqib, harbiy pedagogika uchun quyidagi vazifalar ham muhim o‘rin egallaydi:

- harbiy-pedagogik jarayonda ularning o‘rnini aniqlash;
- ularda pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratni shakllantirish yo‘llarini, mazmuni va uslublarini ko‘rsatish;
- hurmat qozonish yo‘llari va mohiyatini ochib berish;
- ilg‘or pedagogik tajribani o‘rganish va umumlashtirish, harbiy-pedagogik tadqiqotlar olib borish uslublarini ishlab chiqish.

Pedagogika insonlar orasidagi munosabatlarni va ijtimoiy muhitning insonga ta’sirini tadqiq etuvchi fan sifatida iqtisodiyot, madaniyat rivojlanishining o‘ziga xosligi hamda ularning inson shaxsi shakllanishiga ta’sirini o‘rganadi. Shu bilan

birga, pedagogika o‘quv muassasasi tizimining tashkiliy jihatlaridagi ko‘pgina masalalarini hal etishga, shaxslarni tarbiyalashda o‘quv muassasasi, oila va jamoatchilikning o‘zaro hamkorlikda ish olib borishiga yordam beradi.

“Pedagogika” fani tarbiya jarayonini ijtimoiy hodisa sifatida o‘rganar ekan, tabiiy ravishda jamiyatdagi barcha fanlar bilan bog‘liqdir. “Falsafa” fan sifatida insoniyat jamiyati, tabiat rivojlanishining umumiyligi qonuniyatlarini tashkil etadigan, ya’ni pedagogikaning taraqqiy etib borishiga imkon beradigan ilmiy manbaidir. Shu bilan birga, faylasuflar va pedagogika fanlari vakillari tomonidan ishlab chiqilgan bir qator umumiyligi masalalar falsafada ham, pedagogikada ham barobar mavjuddir.

Bular jumlasiga tarbiya bilan boshqa ijtimoiy xodisalar orasidagi o‘zaro aloqlar; dunyoqarashni, ahloqiy, mehnat va estetik tarbiyani shakllantirish masalalari; shaxs va jamoa munosabatlari; ta’lim jarayoni mohiyatini tushunish hamda bilishning dialektik nazariyasini ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan gneseologik masalalar va boshqa muammolar kiradi.

Pedagogikaning aniq masalalarini ishlab chiqishda falsafaning sosiologiya, etika, estetika kabi tarmoqlari katta ahamiyatga egadir.

Etika falsafaning ahloqiy va tarbiya masalalari bilan bevosita bog‘liqdir. Ularni xal etishda pedagogika axloqning umuminsoniy qadriyatlariga suyanadi.

Estetika (nafosat tarbiyasi) insonning estetik ideallarini shakllantirish, madaniyatga va voqelikka estetik munosabatlari umumiyligi qonuniyatlarini o‘rganadi va estetik tarbiyani ilmiy jihatdan asoslash uchun xizmat qiladi. Bu asoslarni pedagogika fani ishlab chiqadi, yoshlarni go‘zallikni xis qila olish, tushunishga o‘rganish vositalari va yo‘llarini belgilab beradi.

Pedagogikaning falsafa va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligini, hal etadigan ilmiy masalalarning umumiyligini pedagogikaning ijtimoiy xususiyati, uning mafkuraviy yo‘nalishga ega ekanligini ta’kidlab turadi. Tarbiyaning hamma muammolarini boshqa siyosiy, ijtimoiy masalalar bilan bir qatorda hal etish zaruriyatini ko‘rsatib beradi.

Jamiyatimiz rivojlanishining hozirgi bosqichida pedagogikaning iqtisodiyot fanlari bilan aloqasi mustahkamlanib bormoqda. Ijtimoiy fanlardagi ma’lumotlarga suyanib, pedagogika jamiyatning tarbiyaga bo‘lgan ob’ektiv ehtiyojini va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini o‘rganadi.

Insonning aqliy rivojlanishi qirralarini, jihatlarini o‘rganadigan boshqa fanlardan farqli o‘laroq, pedagogika inson shaxsi, uning taraqqiyot bosqichlari bilan shug‘ullanadi.

Pedagogika psixologiya va fiziologiya bilan ham bevosita va bilvosita bog‘liqdir. Fiziologiya pedagogika hamda psixologiyaning tabiiy ilmiy bazasi hisoblanadi. Pedagogika fiziologiyaning oliy asab (nerv) faoliyatining rivojlanishi, asab sistemasining o‘ziga xosligi, birinchi va ikkinchi signal sistemalar haqidagi, shuningdek, sezgi organlarining, tayanch harakat apparatlarining, yurak, qon-tomir hamda nafas olish sistemalarining faoliyati, rivojlanishi haqidagi ma’lumotlarga suyanadi.

Psixologik hodisalarning fiziologik asoslarini bilish pedagogika uchun tarbiya va ta’limning ba’zi bir omillarini yaqqol, aniq bilib olish, tushunish imkoniyatini

yaratadi hamda ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirishning ko'pgina muammolarini muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi.

Psixologiya pedagogikaning boshqa fanlar tomonidan aniqlangan bilimlar, o'sib kelayotgan insonning shaxsini shakllantirish, ichki jarayonlarini yuz berish omillari va shart-sharoitlari haqidagi bilimlar bilan qurollantiradi.

Keyingi vaqtarda pedagogika boshqa yangi rivojlanayotgan fanlar bilan, jumladan, murakkab dinamik tizimlarni rejali boshqarish haqidagi fan bo'lgan kibernetika bilan mustahkam aloqada rivojlanmoqda. Bularning barchasi pedagogika o'zining predmeti va tadqiqot sohasiga ega bo'lib, boshqa bir qator fanlar bilan juda mustahkam bog'liqlikda ekanligini ko'rsatadi.


Hozirgi mustaqillik sharoitida o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida umuminsoniy qadriyatlarni, umuminsoniy ijobjiy xislatlarni rivojlantirish O'zbekiston hukumatining qarorlarida mustaqil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev asarlarida, nutqlarida o'z aksini, tasdig'ini topgan.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida tutgan o'z yo'li, tamoyillari tarbiya jarayonida hali avvalgi keksa avlod oldida turmagan yangi masala va muammolarni echish uchun zarur bo'ladigan xislat va sifatlar shakllantirilishini taqozo etadi.

O'zbekistonda milliy istiqlol mafkurasi asta-sekin shakllanib borayapti. Pedagogika ilmidagi tushunchalar ta'riflar milliy istiqlol mafkurasiga mos umuminsoniylik ruhida tushuntirilmog'i maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Albatta ta'lim va tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarni bilan birga milliy o'ziga xoslik nisbati, muvozanati alohida ahamiyatga ega. Yana bir tomonidan ta'lim nazariyasini, ta'lim - tarbiya mazmunini, shaklini va uslublarining asosiy jihatlari Sharqda ishlab chiqilib, Yevropa orqali o'zgarib, rivojlanib yana Sharqqa qaytib kelganini va dunyo pedagogik jarayonini bir butunligini hisobga olinsa, quyidagi tushunchalarda xususiy milliylikdan ko'ra, umuminsoniylik jihatlarining ko'pligi ko'zga tashlanib turadi.

Pedagogika fanining boshqa fanlar bilan bog'liqligi ko'rinishi.



Harbiy pedagogikaning ilmiy tadqiqot metodlari

Pedagogika fani o‘z mazmunini boyitishda yangilashda mavjud bo‘lgan pedagogik hodisa va jarayonlarni uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan metodlari bilan o‘rganadi. Pedagogika fanining ilmiy tadqiqot metodlari qanchalik to‘g‘ri qo‘llansa, ta’lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yuksaladi. Lekin ilmiy tadqiqot metodlarining aniq chegaralangan tizimi hozirgacha fanda yaratilgan emas. Pedagog, pedagogik jarayonda o‘z auditoriyasi tarbiyalanuvchilari xarakter-xususiyatlaridan kelib chiqgan holda ularning psixologiyasini chuqur o‘rganishda bir qator metodlarni qo‘llashi mumkin. Chunki pedagogning asosiy maqsadi dars jarayonini tarbiyaviy ta’sirini oshirish hisoblanadi. Buning uchun quyidagi pedagogik ilmiy tekshirish metodidan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Adabiyotlarni o‘rganish metodi
2. Pedagogik kuzatish metodi.
3. Suhbat metodi (yakka tartibda, guruh bilan)
4. Pedagogik so‘rash metodi.
5. Test sinovlari metodi.
6. Ta’lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi.
7. Eksperiment-tajriba-sinov metodi.
8. Statistika ma’lumotlarini taxlil qilish metodi.
9. Matematika va kibernetika metodi.
10. Modellashtirish metodi.

Ta’lim metodlarini tanlash bilan bir qatorda, o‘qituvchi darsdagi o‘quvchilarni yosh va individual xarakter xususiyatlarini o‘rganishi hamda tahlil kilishi shart.

МУНДАРИЖА

Кириш	3
Шарипов А.А. Ўзбекистон Республикасида захирадаги офицерларни тайёрлаш тизимини яратиш ва ривожланиш тарихи”.....	4
Мусаев М. Н. Фавқулодда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси соҳаси учун резерв ва зихирадаги офицерларни тайёрлаш масалалари.....	10
Жабборов З.Р., Тухтаев Н.Я., Рустамов Д.З Қуролли кучларда рақамлаштиришга қаратилган инновацион технологиялар.....	14
Эргашев Х.И. Ҳорижий давлатлар амалиётини ўрганиш орқали резерв ва зихирадаги офицерларни тайёрлаш тизимини ривожлантиришда инновацион ёндашув.....	19
Анорбоев О И. Олий таълим муассасалари ҳарбий факультетларда тактик фанларни ўқитишида ўқув машғулотларининг асосий турлари ва қўлланиладиган интерфаол методлар.....	26
Рахимов А. Ф., Файзиев Д.Б, Мирзаев Д.А Резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлашда Янги педагогик технологияларнинг аҳамияти.....	35
Аминжонов К.Х. Резерв ва захирадаги офицерларни тайёрлаш жараёнида талабаларда офицерлик касбига ахлоқий-эстетик муносабатларни шакиллантириш масалалари.....	38
Усмонов Ш.Р., Умирзоқов Ш.У., Шохобидинов В.Э. Қозоқистон Республикасида захирадаги ва резервдаги офицерларни тайёрлаш тизими.....	43
Анорбоев А.А., Уралов Х.Б. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар тизимида ҳар томонлама етук кадрларни тарбиялашнинг замонавий усуслари.....	49
Мирзалиев З.Р., Эгамов Х.Ю. Офицерлар ҳарбий-ўқув тарбиясида ҳарбий таълим.....	52
Умаров И.О., Сотволдиев И.И. “Ҳарбий тайёргарлик ўқув марказида резервдаги ва захирадаги офицерларни тайёрлаш: анъаналари, инновациялари, истиқболлари”.....	55
Давлатов Ж.Қ., Тўраев Ж.А. Rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda, Chaqiqliqacha harbiy ta’limning asoslari.....	59
Ахатов С.А Rezervdagi va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlashda, harbiy ta’limning maqsad vazifalari.....	65
Мамажонов С.Х. Harbiy jamoalarda xuquqiy va axloqiy-me’oriy munosabatlar, o’zaro muloqot madaniyati.....	69
Муродов А.А., Ходжаев О.Ш. Ҳарбий кафедралар ўтмиши, бугуни ва келажаги.....	72
Бобоев Х.Ю., Исматов М.М. O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar tizimida yaqin 5 yillikda harbiy ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish bo’yicha olib borilgan islohotlarning qisqacha mazmuni.....	77
Алимов У.И., Абдуллаев Ш.А. Ta’limda ta’lim texnologiyalari va an’nanavy, innovatsiyaviy o’qitish metodlari	80
Аблакулов С.М, Бобоев Х.Ю.. Chet eldagи fuqarolik universitetlarida zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tartibi.....	88
Джабборов Ш.Х. Гофуров Ё.Қ. Harbiy kadrlar kompitentligini oshirishda kimyo darslarining imkoniyatlari	91

Жўраев А.И., Исмоилова М., Ибрагимов Б.,Ибрагимова Ф. Таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг айрим масалалари .	95
Узоқов А.М., Нуруллаев Л.Л. Технология смешанного обучения (blended learning) и ее модели	98
Савин Е.В. Differentiating main aspects of non-verbal communication through english and uzbek cultures	102
Esanov A. A. Oliy ta'lim muassasalari harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari va Oliy harbiy ta'lim muassasalarida harbiy pedagog kadrlarning inavatsion salohiyatini rivojlantirish hamda innovatsion tizimlari.....	106
Saidov I. M. Qurolli kuchlar jangovor tayyorgarligini ta'minlashda harbiy ta'lim.....	110
Тилляев Ш.Ш. Подготовка офицерских кадров в Вооруженных силах Российской Федерации.....	113
Хонимқулов А.Р, Ганжиев Ш.Ж. Чақириққача ҳарбий таълим йўналиши талабаларининг ҳарбий ватанпарварлик тайёргарлиги модели.....	118
Хонимқулов А.Р Чакириққача ҳарбий таълим йўналиши талабаларида “Ватанпарвалик” тушунчаси, унинг моҳияти ва турлари.....	123
Бекназаров А.А. Республикаизда резерв ва захирадаги офицерларни тайёрлашнинг долзарб муаммолари.....	132

**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ЎҚУВ МАРКАЗИ**



**МИРЗО УЛУҒБЕК НОМИДАГИ ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ
УНИВЕРСИТЕТИ ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ЎҚУВ МАРКАЗИНинг
‘ҲАРБИЙ ТАЙЁРГАРЛИК ЎҚУВ МАРКАЗИДА РЕЗЕРВДАГИ ВА
ЗАХИРАДАГИ ОФИЦЕРЛАРНИ ТАЙЁРЛАШ: АНЬАНАЛАРИ,
ИННОВАЦИЯЛАРИ, ИСТИҚБОЛЛАРИ’
МАВЗУСИДА ЎТКАЗИЛГАН РЕСПУБЛИКА
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАНИ**

МАЪРУЗАЛАР ТҮПЛАМИ

Адади 50 нусха. Ҳажми 137 б/т. Бичими 60x84 1/8

ЎзМУ босмахонасида чоп этилди.
Тошкент, 100074, Университет кўчаси.

© Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий Университети Ҳарбий тайёргарлик ўқув маркази, 2021.

Тошкент 2021

